

LANDSHAFT TERMINLARINING SEMANTIK TAHЛИLI.

Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi

Farg'onan davlat universiteti chet tillari kafedrasi o'qituvchisi

usmonovashahnoza40@gmail.com.

Lug'aviy ma'no anglatuvchi so'z "leksema", leksemaning atash ma'nosi "semema", leksemadan anglashil gan tushunchalarning komponentlari, tarkibiy uzvlari esa "sema" deb yuritiladi. Mayjud adabiyotlarda semalar sememaning mundarijasini tashkil etishi¹ haqida fikrlar berib o'tilgan. Professor M.Mirtojiyev o'zining "O'zbek tili semasiologiyasi" deb nomlangan asarida sema sememaning bo'lagi, ya'ni uning tarkibiy qismi degan xulosaga kelish to'g'ri emasligini aytib o'tadi va bu fikrlarni asoslash uchun referentning belgilari uning bo'lagi bo'lolmasligini ta'kidlab o'tadi². Leksik ma'noning tarkibiy qismi bo'lgan semalar so'zlarning semantik taraqqiyotidagi holati, so'z sememasi tarkibida tutgan o'rni, shuningdek, sintagmatik vazifasiga ko'ra turli guruhlarga, tiplarga bo'linadi.

Ko'pgina ilmiy manbalarda so'zning ma'lum sememasiga ko'ra muayyan semantik maydonlarga birlishishligi haqida fikrlar berib o'tilgan. Semalar semantik maydonda o'rinlashish tartibiga qarab bir necha turlarga bo'linadi:

1. Arxisema;
2. Integral sema;
3. Differensial sema;
4. Potensial sema.

Yuqoridagi sema turlari iyerarxik tartibdagi o'rniga qarab o'zaro farqlanuvchi vazifalar bajaradi.

Arxisema – semema (lug'aviy ma'no)lar uchun umumiyl bo'lgan sema hisoblanib,

¹ <https://www.google.com/search /A.Hojev/semantika/>

² Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент, 2010. – Б.12-13.

shu lug‘aviy ma’nolar asosida leksemalarning ma’lum semantik maydonlarga birlashuvchi semasi hisoblanadi.

Integral sema – iyerarxik tartibga ko‘ra ikkinchi o‘rinda turuvchi sema hisoblanib, u ma’lum bir arxisemaga ega semantik maydondagi kichik bir semantik guruhga mansub leksemalarning lug‘aviy ma’nolari uchun umumiyl bo‘lgan, ularni o‘zaro birlashtiruvchi semasidir.

Differensial sema – o‘zaro aloqador sememaning bir-biridan ajralishini, farqlanishini ifodalaydi va iyerarxik tarbida uchinchi o‘rinda turuvchi sema sanaladi. M.Mirtojiyevga ko‘ra, differensial sema – ikki leksemani emas, balki ikki leksema sememasini bir-biridan farqlashga xizmat qiladi.

Iyerarxik tartibga ko‘ra to‘rtinchi o‘rinda turuvchi potensial sema esa leksemalar sememasida (atash ma’nosida) fakultativ holatda yashirin bo‘lib, Ma’lumnutq sharoitidagina namoyon bo‘ladigan sema hisoblanadi.

Masalan, o‘zbek tilidagi ‘Chink’, ‘Yon’, ‘Bet’ leksemalarini olaylik.

Ushbu leksemalarning barchasi “landshaft” semasi atrofida birlashib, bir umumiyl semantik maydonni tashkil etadi. Leksemalardagi “umumiyl birlashtiruvchi sema, ya’ni “landshaft” semasi ‘Bet’, ‘Yona’, ‘Chink’ leksemalarini bir umumiyl ma’no atrofida birlashishini ta’minlaydi va bu leksemalarning “Landshaft” arxisemali semantik maydonni tashkil etishda ishtirok etuvchi paradigma a’zolari ekanligini ifodalaydi. Bu esa umumiyl semasi bir xil bo‘lgan semantik maydonni yuzaga chiqaradi.

‘Bet’, ‘Yona’, ‘Chink’ leksemalari “Landshaft” arxisemali semantik maydonda “*qir, tepa, tog‘larning yonbag‘ri*” semasini anglatuvchi boshqa bir kichik semantik maydonni tashkil etadi. Leksemalarning “*qir, tepa, tog‘larning yonbag‘ri*” semasini anglatishi ‘Bet’, ‘Yona’, ‘Chink’ leksemalarining integral semasi hisoblanadi va “Landshaft” arxisemali semantik maydonga mansub bo‘lgan boshqa bir semantik maydon a’zolaridan farqlanishini ta’minlaydi. Demak, ‘Bet’, ‘Yona’, ‘Chink’ leksemalaridagi arxisema bu – “Landshaft” semasi, “*qir, tepa, tog‘larning yonbag‘ri*” semasi esa bu uch leksemaning integral semasi hisoblanadi. ‘Bet’ leksemasining “*adir, qir, tog‘oldi tepaliklaridagi tekis*

yoki salgina qiya yonbag‘ir” semasini ifodalashi, ‘Yona’ leksemasining “*tog‘, tepe, qir yonbag‘ri*” semasini anglatishi, ‘Chink’ leksemasining “*qir va balandliklarning, supatog‘larning tik tushgan baland yonbag‘ri*” semasini ifodalashi ushbu leksemalarning bir-biridan farqlovchi differensial semasi hisoblanadi.

‘Chink’ leksemasining ba’zan “*cho‘qqi, tog‘ tepasi, kimsasiz qor bosgan tog‘lar*” semasini ifodalashi bu leksemaning potensial semasi sanaladi. ‘Chink’ leksemasidagi bu potensial sema “*landshaft*” arxisemali semantik maydondagi “*tog‘ cho‘qqisi*” semali boshqa bir semantik guruh a’zolari bilan integral sema bo‘lishi mumkin.

Masalan, ‘Chink’ leksemasidagi “*cho‘qqi, tog‘ tepasi, kimsasiz qor bosgan tog‘lar*” semasi bilan “*har yer, har yerida qor yoki muz ko‘rinib turadigan yalang‘och qoyali tog‘ cho‘qqisi*” semasini anglatuvchi ‘Qashqa’ leksemasi bilan bir umumiylilikni tashkil etib, “*landshaft*” arxisemasida “*tog‘ cho‘qqisi*” semasini anglatuvchi yangi bir paradigmni tashkil etadi.

‘Chink’ va ‘Qashqa’ leksemalaridagi “*cho‘qqi, tog‘ tepasi, kimsasiz qor bosgan tog‘lar*”, “*har yer, har yerida qor yoki muz ko‘rinib turadigan yalang‘och qoyali tog‘ cho‘qqisi*” semalari esa “*tog‘ cho‘qqisi*” semasini anglatuvchi “*landshaft*” arxisemali semantik maydonni tashkil etuvchi komponentlarning differensial semasi sanaladi.

Keyingi o’n yillikdagi lingvistik izlanishlarda leksemalar guruhi yangicha usulda keng tahlil qilinayotganligini aytib o’tish joiz. Bunga ko‘ra *giperonim*³ va *giponimiya* deb nomlanuvchi leksemalar o‘rtasidagi semantik munosabat haqida gap ketadi. Masalan, *landshaft* giperonim bo‘lsa, *tog‘, o‘rmon, daryo, cho‘l, qir, adir, maydon, yaylov, shahar, qishloq, zavod, to‘g‘on* kabi leksemalar giponimdir. “Giponim” bo‘lgan leksemalarning sememasasi umumiy semaga ega bo‘lib, u giperonim leksema sememasiga teng kela oladi.

Ushbu munosabatga ingliz tilida quyidagi misolni bersak:

“*mountain*” so‘zi giperonim bo‘lsa, *rocks, alp, mountain pass, mountain borer, highland, peak* kabi landshaft atamalar giponim hisoblanadi.

³ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. –Тошкент: Маънавият, 2004. – Б.23.

Biz mazkur tadqiqot ishimizda o‘zbek va ingliz tillaridagi landshaft atamalari, ularning turlari va nomlari doirasida semantik tahlilni amalga oshirishni o‘z oldimizga maqsad qilib olganimiz. Landshaftga xos leksik tizimni o‘rganishda, albatta, landshaft turlari, ularning turli darajalari va landshaft tarkibiy qismlarini farqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Landshaftlarga xos leksik tizim bir til doirasida bo‘lmaganligi, tabiat va inson o‘rtasidagi o‘zaro dialektik munosabatlarni ifodalagani uchun ham tuzilish jihatdan murakkab va ko‘pqirralidir. Shu jihatdan landshaft terminologiyasi va landshaftlarga doir leksika alohida hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, landshaftlarga doir sharhlarning ommaviy axborot vositalarida berib borilishida ayrim terminlarning yetishmasligi yoki bu borada jurnalistlarning yetarlicha bilimga ega emasligi sezilmoqda. Boshqa tomondan, atamalarning umumxalq tili leksik birliklaridan farqli jihat bilan birga, landashftga doir atamalar oddiy so‘zlashuv nutqida boshqa bir ma’nolarda qo‘llanilishi landshaftlarga doir leksik tizimning o‘zga xos jihatlaridan sanaladi.

Landshaft – ko‘rinishi, relyefi, iqlimi, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, gidrologik rejimi va b. larning bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo‘lgan hudud, joy.

Professor E.Begmatov sistemalilik xususida fikr yuritar ekan, olim tilning lug‘aviy boyligini ham muayyan sistema sifatida tasavvur qilish va ilmiy tasniflash kerakligini taekidlaydi va bu borada quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi:

1. So‘zlarni so‘z turkumlariga ajratish usuli, ya’ni so‘z turkumlari sistemasi.
2. So‘zlarni yasalish modellariga ko‘ra tasnif qilish usuli, ya’ni so‘z yasash usullari.
3. So‘zlarni funksional-stilistik guruhlarga ajratish usuli, ya’ni so‘zlarni stilistik-differensial guruhlari.
4. So‘zlarni ma’lum mavzu guruhlarga ajratish usuli, ya’ni so‘zlarning mavzu guruhlari va boshqalar.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

- 1.G‘ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik – Toshkent, 2005. – 75 b.
2. Агапов С.В. Географический словарь. – М.: Просвещение, 1968. – 253 с.
3. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 486. MAXSUS SON 2023 165
4. Флягина М.В. Лингвогеографическое исследование ландшафтной лексики донских говоров: Дис. ... канд. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2004. – 389 с.
- 5.Харькова Е.В. Общее и различное в структуре тематического поля (на примере ноля «ландшафт» в русском и английском языках): Дис. ... канд. филол. наук. – Казань, 2003. – 222 с.
6. Sh. Usmonova . Ingliz va o‘zbek tilida landshaft so‘zlarining qiyosiy tahlili va frazealogiya –Uzbek scholar journal – 2023,53-55 b